

## TARBIYACHINING MASHG‘ULOTLAR JARAYONIDA TEXNOLOGIK KOMPITENTLIKKA EGA BO‘LISHINING AFZALLIKLARI.

Muximova Sevara Anvarovna

*Jizzax shahar maktab va maktabgacha ta'lim bo'limiga  
qarashli 18-son DMTT direktori.*

**Annotatsiya:** *Bugungi kunda zamonaviy tarbiyachining muhim vazifasi bolaga shunchaki bilim berish emas, ijodiy tafakkurini loyihalashtirishdan iboratdir. Ushbu maqolada mashg‘ulotlar jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari haqida so‘z borgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Barkamol avlod, intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, bolalar jamoasi, intellektual rivojlangan shaxs.*

**Abstract:** *Today, the important task of a modern educator is not just to give knowledge to a child, but to design his creative thinking. This article talks about the advantages of using innovative technologies during training.*

**Key words:** *Perfect generation, intellectual, moral, aesthetic and physical development, modern pedagogical technologies, children's team, intellectually developed person.*

**Аннотация:** *Сегодня важной задачей современного педагога является не просто дать ребенку знания, а спроектировать его творческое мышление. В данной статье говорится о преимуществах использования инновационных технологий во время обучения.*

**Ключевые слова:** *Совершенное поколение, интеллектуальное, нравственное, эстетическое и физическое развитие, современные педагогические технологии, детский коллектив, интеллектуально развитая личность.*

Mamlakatda o‘tkazilayotgan ijtimoiy –iqtisodiy isloxlarni, xorijiy mamlakatlar ilg‘or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikatsion texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta’lim tizimida ma’nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash-Davlat talablarining maqsadi xisoblanadi. Maktabgacha talim yoshidagi bolalarning rivojlanishi, ta’lim–tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilash, ta’lim –tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy xaborot –kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish Davlat talablarining eng muxim vazifalaridandir. Bu kabi vazifalardan kelib chiqqan holda, ta’lim tarbiya jarayoniga eng zamonaviy va bola yoshiga mos vositalarni tanlash pedagog xodimlardan bilim va tajriba talab qilinadi. Bolaning ta’lim olishi va rivojlanishida esa kattalarning roli muxim ahamiyatga ega. Chunki maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachi -o‘rgatuvchi, bolalar esa qabul qiluvchi xisoblanadi. Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda maktabgacha ta’lim tashkiloti tajribali pedagoglaridan axborot kommunikatsion texnologiyalardan mashg‘ulotlar jarayonida unumli foydalana olish, u haqida bilimga ega bo‘lish talab qilinadi.

Hozirgi kunda ta’lim–tarbiya tizimini takomillashtirish bevosita zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga samarali joriy etish darajasi bilan bog‘liqligini inkor etib bo‘lmaydi. Pedagogik texnologiya ta’lim-tarbiya jarayoniga o‘ziga xos bo‘lgan innovatsion yondashuvdir. U pedagogikada ijtimoiy-muxandislik tafakkurining ifodasi, o‘qitish, tarbiyalash jarayonini ma’lum

darajada standartlash demakdir. Zamonaviy ta‘lim tizimining vazifasi bolaga shunchaki bilim berish emas, ijodiy tafakkurini loyihalashtirishdan iboratdir. Bolalarni ta‘lim jarayoniga jalb etish qiziqtirish juda muxim. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlaridada bolalar uchun tayyorlangan multimediyali vositalar ovozli, musiqali, harakatlanuvchi, rangli, eng muhimi bola yoshiga mos bo‘lishi zarur.

Har bir mashg‘ulot jarayonida tarbiyachi didaktik tamoyillarga tayangan holatda yondashishi talab etiladi. Ta‘lim materialining tushunarli bulish tamoyili kompyuter xotirasiga kiritilgan va o‘rganishga taalluqli materiallarni monitor ekraniga chiqarish va namoyish etish asosida amalga oshiriladi.

Bugungi kunda zamonaviy tarbiyachining muhim vazifasi bolaga shunchaki bilim berish emas, ijodiy tafakkurini loyihalashtirishdan iboratdir. Bu jarayonda esa tarbiyachidan bolalarning qiziqishidan kelib chiqqan xolda mashg‘ulotga to‘g‘ri yondasha olishi va qiziqarli qilib tashkillashtirishda texnologik kompetentlikka ega bo‘lishi talab qilinadi.

Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik bilim, ko‘nikma, malakalarni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy axborot vositalari, texnika va texnologiyalardan foydalana olishdir. “Texnologik kompetentlik” tushunchasini turli nuqtai nazardan, kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida ham, shaxsning axborot madaniyatining tarkibiy qismi sifatida ham baholash mumkin. Ahamiyatli belgilar sirasiga axborot texnologiyalari asoslarini bilish, kompyuterdan zaruriy texnik vosita sifatida foydalanish, axborotni izlash, tahlil qilish va foydalanishga oidb ilim, ko‘nikma va malakalarning jami kiritiladi. Pedagog faoliyat jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishi, ta‘lim berishni va ta‘lim olishni yengillashtiradi, tarbiyachi uchun ta‘limda qulaylikni ta‘minlaydi, ta‘lim oluvchilarning bilim olishga qiziqishini, aqliy qobilyatlarini oshirishga yordam beradi. Axborot texnologiyalarining o‘ziga xos xususiyatlaridan shu ma‘lum bo‘ladiki, pedagog texnologik kompetentligi va mahoratini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish nafaqat ta‘lim samarasini, balki tarbiyachi ish faoliyati natijasini ham ijobiy tomonga o‘zgartiradi.

Shu sababli ham tarbiyachilarimiz mashg‘ulotlarni tashkil etishda texnologik kompetentligi va mahoratini oshirib borishi talab etiladi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalar uchun tayyorlangan multimediyali vositalar - ovozli, musiqali, harakatlanuvchi, rangli, multiplikatsiyali va jozibali, eng muhimi bola yoshiga mos bo‘lishi zarur. Bundan tashqari tarbiyachi har bir vositani o‘z o‘rnida qo‘llay olish malakasiga ega bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kundagi asosiy vazifalarimizdan biri tarbiyalanuvchilarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallab turgan turli tipdagi malakalarini samarali ravishda qo‘llashga o‘rgatish, mustaqil o‘rgatish, mustaqil ravishda fanga oid zaruriy axborotlarni izlab topish, tahlil qilish natijasida zaruriy bilimlarni oshirishga oid materiallarni ajrata olish, ko‘zda tutilmagan noaniq, ya‘ni muammoli vaziyatlar vujudga kelganda ish beradigan malakalarga alohida ahamiyat berish lozim desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston”, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. 2019 yil, 8 may. <https://lex.uz/docs/-4327235>

3. Kamolidinov M., Vaxobjonov B. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari savollar, javoblar. T.: “Talqin” 2010y, 220 bet.
4. L.Mirjalolova va boshq. “Mashg‘ulotlarni o‘tkazish texnologiyalari” moduli bo‘yicha o‘quv – uslubiy majmua. T.: 2018 y. 257 bet.
5. B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova «Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari» T.; 2015 y □ 210 bet.